

GIYOHVADLIK - SALBIY ILLAT

Shaxnoza Ismatova

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik
kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish
instituti yetakchi mutaxassisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada giyohvandlik salbiy illat ekanligi, uni ayniqsa, voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida tarqaliyotganligi hamda ushbu salbiy holatlarni oldini olish masalalari tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Voyaga yetmaganlar, vositalar, giyohvandlik, yoshlar, inson salomatligi, kuchli ta’sir qiluvchi, psixotrop, suiiste’mol, qilish, moddalar.*

Mamlakatimizda aholi orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, ularning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga nisbatan qarshi immunitetni shakllantirish, shuningdek, inson salomatligini ta’minlashga qaratilgan muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ammo so‘nggi yillarda yangi turdagi sintetik giyohvandlik vositalari va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar paydo bo‘layotgani, ulari inson omilisiz internetning ijtimoiy tarmoqlaridan foydalangan holda aholi, ayniqsa, yoshlar orasida oson tarqatilayotgani achinarli holdir.

Giyohvand moddalarni suiiste’mol qilishning eng og‘ir oqibati hisoblanib, bu — insonni oilasi va jamiyatidan uzib qo‘yishi¹. Bora-bora shaxsning ijtimoiy roli va qadr-qimmati yemiriladi, axloqiy cheklar susayadi va turli huquqbuzarliklarga moyillik kuchayadi. Buning ustiga, bunday moddalar hayot uchun xavf tug‘diradi: miya faoliyatini izdan chiqaradi, immun tizimini zaiflashtiradi, butun organizmda chuqur patologik o‘zgarishlar keltirib chiqaradi².

Buni oldini olish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, milliy qonunchiligimizga mana shunday xavf-xatarlarning oldini olish, ularga qarshi ayovsiz kurashish, bunday illatni tag-tomiri bilan yo‘qotishga qaratilgan normalarni kiritish vaqti keldi, dedi davlat rahbari.

¹ Axmedov B.M., Zokirov B.G‘. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qiluvchi uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishdagi ayrim muammolar / Ekstremizm, terrorism, guruhli va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash muammolari: Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. 2001. – B. 121.

² N.B.Sholimov. Giyohvandlikning oqibatlari va oldini olish. ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conferen. B. 173-181.

Aytish kerakki, Prezidentimizning 2025-yil 6-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta‘sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”³gi PF-73-sonli hamda 2025-yil 3-noyabrdagi “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”⁴gi PF-207-sonli Farmonlari bu borada muhim huquqiy asos bo‘ldi.

Ilg‘or xorijiy tajriba, xalqaro, shu jumladan BMT ekspertlarining xulosa va tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024 — 2028-yillarga mo‘ljallangan milliy strategiya tasdiqlandi.

Milliy strategiya doirasida aholi, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarda “giyohvandlikka qarshi immunitet”ni, o‘quvchi va talabalar orasida kuchli ta‘sir qiluvchi dorilarni iste‘mol qilishga murosasiz munosabatni shakllantirish, ta‘lim muassasalarida psixofaol moddalar tarqalishining oldini olishga qaratilgan yangi ta‘sirchan targ‘ibot-tashviqot va tarbiyaviy-profilaktik mexanizmlarni joriy etish maqsadlarga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifasi sifatida belgilandi.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2025 yil 3 noyabrdagi “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoning maqsadi:

a) ta‘lim muassasalarida, o‘quvchi va talabalar orasida psixofaol moddalarning tarqalishiga batamom chek qo‘yish, yoshlarda giyohvandlik illatiga murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha ta‘sirchan chora-tadbirlarni kompleks ravishda amalga oshirish;

b) giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta‘sir qiluvchi moddalarni noqonuniy aylanmasiga qat‘iy jinoiy-huquqiy mexanizmlar orqali barham berish, bu boradagi jazo choralari keskin kuchaytirish hamda yoshlarga nisbatan sodir etiladigan narkojinoyatlar uchun javobgarlikni og‘irlashtirish;

v) giyohvandlik vositalarini respublika chegarasidan olib kirish yo‘nalishlarini, internet tarmoqlari orqali tarqatish harakatlarini, noqonuniy narkolaboratoriyalarni va narkojinoiy uyushmalarni, shu jumladan, ularga homiylik qilayotgan mansabdor shaxslarni aniqlash, ular

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2025-yil 6-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta‘sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73 sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6912475>

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2025-yil 3-noyabrdagi “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/7818774>

faoliyatiga chek qo‘yish hamda jazo muqarrarligini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli tezkor-qidiruv va tergov faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

g) giyohvandlik vositalarini tayyorlash uchun foydalanish mumkin bo‘lgankimyoviy moddalar (prekursorlar) aylanmasi ustidan qat’iy davlat nazoratini o‘rnatish, giyohvandlik vositalaridan tibbiyotda foydalanuvchi tibbiyot muassasalari, farmasevtika korxonalari va dorixonalarning faoliyatini nazorat qilishamaliyotiga raqamli yechimlarni joriy etish;

d) aholi, ayniqsa, voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida giyohvandlik hamda zaharvandlikni tashxislash, davolash va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlarni belgilashdan iboratdir.

Bundan tashqari, Farmon bilan Giyohvandlik va narkojinoyatlarning barvaqt oldini olish hamda ularga qarshi kurashish bo‘yicha 2025-2026-yillarga mo‘ljallangan kompleks amaliy harakatlar milliy dasturi tasdiqlandi. Milliy dastur ijrosini tizimli ravishda nazorat qilib borish maqsadida Prezident Administratsiyasi huzurida faoliyat ko‘rsatuvchi Respublika idoralararo muvofiqlashtiruvchi ishchi guruh tuzildi.

Hujjatda 2026-yil 1-iyulga qadar Internet tarmog‘idagi narkodo‘konlarni hamda giyohvandlik vositalarini tarqatish holatlarini sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida aniqlash va bloklashga mo‘ljallangan dasturlarni ishlab chiqish bo‘yicha yoshlar o‘rtasida xakaton o‘tkazish hamda eng maqbul takliflarni tanlab olib, amaliyotga joriy qilish ham nazarda tutilgan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, yoshlarimiz giyohvandlik kasaliga muhtalo bo‘lib qolmasliklari uchun kattalar ularning bo‘sh vaqtlari to‘g‘ri o‘tishiga ko‘maklashishlari, madaniy hordiq chiqarish, sport bilan shug‘ullanish, foydali mehnat bilan band bo‘lishlariga jiddiy e‘tibor qaratishlari lozim.

Bundan tashqari, aholida, ayniqsa, yosh avlodda sog‘lom e‘tiqodni shakllantirish, ular orasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘un ravishda targ‘ib etish ham muhim ahamiyatga ega. Umuman, yoshlarning bilimi va tafakkurini yanada oshirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishlarini izchil amalga oshirishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2025-yil 3-noyabrdagi “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-207-sonli Farmoni.
<https://lex.uz/docs/7818774>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2025-yil 6-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga

chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta‘sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-sonli Farmoni.
<https://lex.uz/ru/docs/6912475>

3. Axmedov B.M., Zokirov B.G‘. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qiluvchi uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishdagi ayrim muammolar/ Ekstremizm, terrorizm, guruhliy va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash muammolari: Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. 2001. – B. 121.

4. N.B.Sholimov. Giyohvandlikning oqibatlari va oldini olish. ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference. B.173-181.

5. M.Q.O‘razaliev “Jinoyatchilik bilan aloqador bo‘lgan ijtimoiy salbiy xodisalarning sabablari va ularning oldini olish” Monografiya. // - T.: TDYU nashriyoti, 2023. – B. 196.